

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASHNING TEXNOLOGIK JIHATLARI

Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna,

Qo'qon universiteti Andijon filiali

“Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat”

kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: abduraxmonovasayyora85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak pedagog-talabalarni ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilishga tayyorlashning nazariy va amaliy masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda raqamli texnologiyalar, keys-stadi va pedagogik simulyatsiyalar ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan “Oliy ta'lim – talaba – ota-ona” uchligining innovatsion hamkorlik modeli va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari uzluksiz ilmiy bayon asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, hamkorlik pedagogikasi, ota-onalar bilan ishlash, kommunikativ kompetensiya, raqamli platformalar, pedagogik trening, bo'lajak o'qituvchi, keys-stadi, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические вопросы подготовки будущих учителей-студентов к эффективному сотрудничеству с родителями в контексте инновационного образования. В исследовании подчеркивается важность цифровых технологий, тематических исследований и педагогических симуляций в повышении коммуникативной компетентности студентов. Автор обосновывает модель инновационного сотрудничества триады «Высшее образование – студент – родитель» и механизмы ее практической реализации на основе непрерывного научного обоснования.

Ключевые слова: инновационное образование, кооперативная педагогика, работа с родителями, коммуникативная компетентность, цифровые платформы, педагогическая подготовка, будущий учитель, тематическое исследование, социально-педагогическое сотрудничество.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical issues of preparing future teacher-students for effective cooperation with parents in the context of innovative education. The study highlights the importance of digital technologies, case studies and pedagogical simulations in improving students' communicative competence. The author substantiates the innovative cooperation model of the triad "Higher education - student - parent" and the mechanisms for its implementation in practice on the basis of a continuous scientific statement.

Keywords: innovative education, cooperative pedagogy, working with parents, communicative competence, digital platforms, pedagogical training, future teacher, case study, socio-pedagogical cooperation.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi nafaqat fan asoslarini o'rgatuvchi mutaxassis, balki ijtimoiy mediator — ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi tizimli muloqotni muvofiqlashtiruvchi strategik sub'ekt vazifasini ham o'taydi. Biroq, oliy ta'lim bitiruvchilarining maktab amaliyotiga moslashish jarayoni tahlil qilinganda, eng dolzarb muammolardan biri sifatida aynan ota-onalar bilan kasbiy muloqotga kirishishdagi psixologik va metodik tayyorgarlikning yetishmasligi ko'zga tashlanmoqda. Ushbu muammo global miqyosda ham o'rganilgan bo'lib, masalan, A. Fan va M. Chen olib borgan meta-tahlillar ota-onalar bilan hamkorlik tizimidagi uzilishlar o'quvchilarning

maktabdan bezishi darajasini oshirishini ko'rsatadi. Bizning tahlillarimizga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar oliy ta'lim devorlari ichidayoq ushbu ijtimoiy xavfni anglashlari va ota-onani ta'limiy inqirozlarning oldini oluvchi asosiy preventiv kuch sifatida baholashga o'rganishlari shart. Innovatsion sharoitda ota-onalar bilan hamkorlik qilish shunchaki an'anaviy majlislar o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki raqamli texnologiyalar, psixologik xavfsizlik va ochiqlik tamoyillari asosida "oila-maktab" integratsiyasini yaratishni taqozo etadi.[1]

Mazkur jarayonning huquqiy va konseptual asoslari O'zbekiston Respublikasining 2023-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan bo'lib, unda farzandlarning ta'lim-tarbiyasi va kamoloti uchun ota-onalar hamda davlatning mas'uliyati qat'iy belgilangan. Bizning tahliliy qarashlarimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'limda talabalarni ota-onalar bilan ishlashga tayyorlashning huquqiy-pedagogik kompetensiyasi aynan ushbu konstitutsiyaviy normalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini bilishdan boshlanishi lozim.

Shu sababli, bo'lajak pedagoglarni ushbu murakkab jarayonga tayyorlashning texnologik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak pedagoglarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash masalasi pedagogika fanida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. J. Epstein oila, maktab va jamiyat hamkorligi o'quvchilarning ta'limiy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan. N.A. Muslimov bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kasbiy kompetensiya va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini yoritgan. N. Karimova pedagogik muloqot va nizolarni bartaraf etish metodikasini tadqiq qilgan bo'lsa, J. Smith ota-onalar bilan hamkorlikda raqamli kommunikatsiya vositalarining samaradorligini asoslab bergan. M. Shodiyeva oilaviy muhitni pedagogik-psixologik diagnostika qilish masalalarini o'rgangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, bo'lajak pedagoglarni innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ushbu faoliyatga tayyorlashning texnologik jihatlari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bo'lajak pedagoglarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning texnologik jihatlari o'rganish maqsadida nazariy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya hamda innovatsion ta'limga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi, ilg'or xorijiy va milliy tajribalar o'rganildi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishda qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar, keys-stadi va pedagogik simulyatsiyalar samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan baholandi. Olingan natijalar umumlashtirilib, bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Bo'lajak pedagog-talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash jarayoni murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, u nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va texnologik tayyorgarlikning uyg'unligini talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik pedagogikasi muammolari J. Epstein, Sh. Amonashvili va V. Suxomlinskiy kabi olimlar tomonidan tizimli o'rganilgan bo'lsa-da, bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida bu masala yangicha texnologik yondashuvlarni talab etmoqda.[2] Bizning tahlilimizga ko'ra, talabalarni ushbu faoliyatga tayyorlashda nazariy-psixologik bosqich birinchi poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Zero, zamonaviy tadqiqotlarda ota-onalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi kommunikatsiya chastotasi va sifati o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi empirik isbotlangan. Bizningcha, bo'lajak o'qituvchi ota-ona bilan muloqotni majburiyat emas, balki o'quvchi muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy strategik resurs sifatida ko'rishni nazariy bosqichdayoq o'zlashtirishi zarur.

Bu bosqichda talabalarga oila psixologiyasi, pedagogik konfliktologiya va muloqot etikasi fanlari doirasida ota-onalarning turli tipologiyalari bilan ishlash mexanizmlari o'rgatiladi. Ayniqsa, nizoli vaziyatlarda o'qituvchining emotsional intellektini boshqarishi bo'lajak mutaxassisning professional barqarorligini ta'minlaydi.

Tayyorgarlik jarayonining ikkinchi, ya'ni amaliy-texnologik bosqichida Keys-stadi (Case-study) va pedagogik simulyatsiyalar asosiy o'rin tutadi. Bu metod talabalarga real maktab hayotida uchraydigan murakkab pedagogik vaziyatlarni (masalan, farzandi ta'limiga befarq ota-ona bilan suhbat yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan ishlash) auditoriya sharoitida rolli o'yinlar orqali tahlil qilish imkonini beradi[3]. Bunday treninglar talabalarda muloqotga kirishishdagi "psixologik to'siq"larni bartaraf etadi va ularni kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shuningdek, talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashda raqamli didaktika imkoniyatlaridan foydalanish innovatsion sharoitda o'ta muhimdir. Zamonaviy o'qituvchi ota-onalar bilan muloqotni elektron platformalar, LMS tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham tizimli yo'lga qo'yishi lozim.

Tadqiqotchi J. Olmstead tomonidan olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va onlayn formatlar ota-onalarning maktab hayotidagi ishtirokini 40% gacha oshirish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarga faqat an'anaviy muloqotni emas, balki "raqamli pedagogik muloqot" madaniyatini ham integratsiyalashgan holda o'rgatish davr talabidir.

Talabalarga virtual muloqot etikasi, onlayn pedagogik maslahatlar tashkil etish va raqamli kundaliklar yordamida ota-onalarni farzandi ta'limiga jalb qilish texnologiyalari o'rgatiladi.[4]

O'tkazilgan tahliliy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, "Oliy ta'lim – talaba – ota-ona" uchligining innovatsion hamkorlik modeli talabalarning pedagogik amaliyoti davrida o'z

samarasini beradi. Talaba maktabda amaliyot o'tash jarayonida ota-onalar majlisini loyihalashtirishi, individual diagnostika ishlarini olib borishi va ota-onalar uchun "Pedagogik burchak"lar tashkil etishi uning kasbiy kompetentligini yangi bosqichga ko'taradi. Muslimov N.A. ta'kidlaganidek, bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash uning shaxsiy-kasbiy fazilatlari va texnologik bilimlarining integratsiyasi asosida amalga oshiriladi.[5]

Olim R.A. Mavlonova tadqiqotlarida ham bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi muloqot va ijtimoiy moslashuvchanlik kontekstida ko'rib chiqilgan. Bizning tahliliy xulosamizga ko'ra, talaba amaliyot davrida ota-ona bilan bevosita muloqot traektoriyasini mustaqil loyihalashtira olgandagina, unda kasbiy refleksiyaning yuqori darajasi shakllanadi.

Mazkur yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki jamiyatda pedagogik madaniyatni yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali o'rnatilgan doimiy hamkorlik ota-onalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini rag'batlantiradi va o'quvchining shaxsiy rivojlanishidagi muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

Bo'lajak pedagog-talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashning yana bir muhim texnologik jihati — bu oilaviy muhitni pedagogik-psixologik diagnostika qilish metodikasini mukammal egallashdir. Innovatsion sharoitda o'qituvchi ota-ona bilan muloqotga kirishishdan avval har bir oilaning ijtimoiy-psixologik portretini, undagi tarbiya uslublarini (avtoritar, demokratik, liberal yoki befarq) va ota-onaning ta'lim muassasasidan kutayotgan natijalarini tahlil qila olishi lozim.

Xalqaro tajribada, xususan, E. Pomerantz tadqiqotlarida ota-onalarning maktabga jalb qilinishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik statusiga qarab turlicha namoyon bo'lishi isbotlangan. Shundan kelib chiqib, biz talabalarga universal emas, balki differensial diagnostika metodlarini o'rgatish lozim deb hisoblaymiz. Ya'ni, talaba har bir oilaning o'ziga xos ijtimoiy portretini "oila xaritasi" orqali vizuallashtira olishi va shunga mos moslashuvchan strategiya tanlashi lozim.

Talabalarga ushbu jarayonda sotsiometrik so'rovnomalar o'tkazish, proektiv metodikalar va "oila xaritasi"ni tuzish texnologiyalari o'rgatilishi, ularda nafaqat axborot yig'uvchi, balki olingan ma'lumotlar asosida oilaga individual yondashuv strategiyasini ishlab chiquvchi tahlilchi ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi munosabatlarni quruq rasmiylatchilikdan samimiy va natijaga yo'naltirilgan professional hamkorlik bosqichiga olib chiqadi.[6]

Shu bilan birga, talabalarni hamkorlik jarayonining samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilib borish va "teskari aloqa" (feedback) mexanizmlaridan foydalanishga o'rgatish amaliy ahamiyatga egadir. Innovatsion ta'lim muhitida ota-onalar bilan hamkorlik faqat bir tomonlama axborot berish emas, balki ularning taklif va mulohazalarini o'quv-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishni anglatadi. Bo'lajak pedagoglar raqamli so'rovnomalar (masalan, Google Forms yoki Telegram-botlar) orqali

ota-onalar ehtiyojlarini o'rganish, onlayn "ota-onalar universiteti" mashg'ulotlarini tashkil etish va hamkorlik natijasida o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda xulq-atvoridagi ijobiy o'zgarishlarni statistik tahlil qilish texnologiyalarini egallashlari zarur.

Dunyo miqyosidagi tadqiqotlar masalan, Goodall & Montgomery, ota-onalar bilan ishlashda "maktabga yo'naltirilganlik"dan "ta'limga yo'naltirilganlik"ka o'tish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bizning fikrimizcha, talabalar ota-onani shunchaki maktab tadbirlariga chaqirish texnologiyasini emas, balki ularni uy sharoitida ham farzandining mustaqil ta'lim olish jarayonini qo'llab-quvvatlashga o'rgatuvchi maslahatchi-pedagog rolini o'zlashtirishlari muhim ahamiyatga ega.

Bunday texnologik yondashuv talabaning professional faoliyatida "oila-maktab" hamkorligini tizimli boshqarish imkonini beradi va pedagogik jamoada bitiruvchining kasbiy mahorati bo'yicha yuqori reytingga ega bo'lishini ta'minlaydi.[7]

Xulosa.Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak pedagog-talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash jarayonini nazariy va metodologik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelindi:

Kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi. Zamonaviy o'qituvchi faqat o'z fanining bilimdoni bo'lishi yetarli emas, balki u kuchli ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarga, xususan, oila bilan tizimli muloqot o'rnatish mahoratiga ega bo'lishi shart. Talabalarni ushbu jarayonga tayyorlash ularning professional moslashuv davrini qisqartiradi va maktab amaliyotidagi ilk qadamlaridayoq ota-onalar bilan ishonchli hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Texnologik integratsiyaning zaruriyati. Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy nazariy ma'ruzalar talabada amaliy ko'nikma shakllantirish uchun yetarli emas. Ota-onalar bilan ishlash metodikasini o'rgatishda keys-stadi, rolli o'yinlar va pedagogik simulyatsiyalar kabi faol metodlardan foydalanish talabalarda "psixologik immunitet" va nizoli vaziyatlarda konstruktiv muloqot qilish qobiliyatini yuksaltiradi.

Raqamli didaktikaning roli. Innovatsion sharoitda "oila-maktab" hamkorligi raqamli platformalar (elektron kundalik, ijtimoiy tarmoqlar, vebinarlar) orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bo'lajak pedagoglarni virtual muloqot etikasi va raqamli monitoring vositalari bilan ishlashga o'rgatish, ota-onalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishning eng samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Diagnostik tahlil va monitoring. Hamkorlikning natijadorligi har bir oilaga individual yondashuv va muloqot samaradorligini doimiy monitoring qilib borishga bog'liq. Talabalarda oilaviy muhitni diagnostika qilish va olingan ma'lumotlar asosida tarbiyaviy strategiyalarni tuzatish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi.

Amaliy taklif sifatida shuni qayd etish lozimki, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida "Ota-onalar bilan ishlashning innovatsion texnologiyalari" nomli maxsus kurslarni joriy

etish yoki mavjud metodika fanlari doirasida amaliy treninglar ulushini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv maktab va oila o'rtasidagi ijtimoiy masofani qisqartirishga, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida yagona talablar tizimini o'rnatishga va pirovardida milliy ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqishga poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarori.
2. Epstein, J. L. School, Family, and Community Partnerships. Westview Press, 2011.
3. Karimova N. Pedagogik muloqot va nizolarni bartaraf etish metodikasi. – Toshkent: Pedagog, 2021.
4. Smith, J. Digital communication in parent-teacher relationships. Journal of Educational Tech, 2020.
5. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Shodiyeva M. Oilaviy munosabatlar psixodiagnostikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Brown, L. Monitoring school-home partnership effectiveness. Educational Leadership Review, 2021.

